

AXMEDOV Burxon Abduraxmonovich,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasida dotsenti, PhD

ISLOM ILMLARINI TUSHUNISHDA MANTIQ FANINING AHAMİYATI

ЗНАЧЕНИЕ НАУКИ ЛОГИКИ В ПОНИМАНИИ ИСЛАМСКИХ НАУК

THE IMPORTANCE OF THE SCIENCE OF LOGIC IN UNDERSTANDING THE ISLAMIC SCIENCES

Annotatsiya. Islom ilmlari inson tafakkurining eng murakkab va chuqur sohalaridan biri hisoblanadi. Qur'on va sunnatni anglash, ulardan hukm chiqarish, aqidaviy masalalarni asoslash – bularning barchasi puxta fikrlashni talab qiladi. Shu bois Islom ilmlarini o'rganishda mantiq ilmi muhim o'rin egallaydi.

Ushbu maqolada mantiq ilmining nazariy asoslari, uning Islom ilmlarini o'rganishdagi o'rni va amaliy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilingan. Xususan, mantiqning tafsir, hadis, fiqh va aqida fanlaridagi roli ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Shuningdek, ulamolarning mantiq ilmiga bo'lgan munosabati, uning afzalliklari va ehtiyot jihatlari ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: mantiq, tafakkur, qiyos, istidlol, fiqh, aqida, usulul fiqh, dalil.

Аннотация. Исламские науки представляют собой одну из наиболее сложных и глубоких сфер человеческого мышления. Понимание Корана и сунны, извлечение из них правовых норм, а также обоснование догматических положений – всё это требует глубокого и системного мышления. В этой связи логика занимает важное место в изучении исламских наук.

В данной статье комплексно анализируются теоретические основы логики, её роль в изучении исламских наук и практическое значение. В частности, на основе научных аргументов раскрывается значение логики в таких дисциплинах, как тафсир, хадис, фикх и акида. Кроме того, рассматривается отношение учёных к логике, её преимущества и аспекты, требующие осторожного подхода.

Ключевые слова: логика, мышление, кыяс, истидляль, фикх, акида, усуль аль-фикх, доказательство.

Annotation. Islamic sciences are considered one of the most complex and profound domains of human thought. Understanding the Qur'an and the Sunnah, deriving legal rulings from them, and substantiating theological doctrines all require rigorous and systematic reasoning. Therefore, logic occupies an important place in the study of Islamic sciences.

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of logic, its role in the study of Islamic sciences, and its practical significance. In particular, the role of logic in disciplines such as tafsir, hadith, fiqh, and aqidah is examined based on scholarly evidence. Furthermore, the attitudes of scholars toward logic, along with its advantages and aspects requiring caution, are also explored.

Keywords: logic, reasoning, qiyas, istidlal, fiqh, aqidah, usul al-fiqh, evidence.

KIRISH

Inson hayot sahnasida o'zi bilan birga yashab turgan boshqa mavjudotlardan tafakkur yuritish va nutq qilish xislati bilan ajralib turadi. To'g'ri, ba'zi murakkab jarayonlarda, masalan, fikrlash va ziyraklikda hayvon ham insonga sherik bo'ladi, biroq inson boshqa barcha hayvon turlaridan ularda topilmaydigan aqliy qobiliyatlari bilan farq qiladi. Masalan, u o'z fikr va xayollarini boshqalarga yetkaza oladi. Shuningdek, ko'rgan va eshitgan narsalari haqida to'g'ri yoki noto'g'ri, rost yoki yolg'on deb hukm chiqara oladigan, qiyoslash, o'xshatish, xulosa chiqarish kabi murakkab aqliy jarayonlarni amalga oshira oladigan yagona mavjudotdir.

Agar biz insonni boshqa mavjudotlardan butunlay ajratib turadigan bir sifat bilan ta'riflamoqchi bo'lsak, uni "tafakkur qiluvchi mavjudot" deb atashimiz mumkin. Bu, inson tafakkur qiluvchi mavjudot bo'lgani uchun har doim ham to'g'ri mantiqiy usulda fikr yuritadi, degani emas. Chunki u aqlini ishlatishda yoki fikrlashda ko'pincha xatoga yo'l qo'yadi. Ba'zan to'g'ri hukmdan noto'g'ri xulosa chiqaradi yoki noto'g'ri hukmdan ham xulosa chiqaraveradi. Ayrim hollarda esa masalani chalkashtirib yuboradi. Masalan: (A)ni (B)ga sabab bo'lgan deb o'ylaydi, holbuki haqiqiy sabab (D) bo'lishi mumkin.

Insonning tilni qo'llashda va so'zlarni tanlashda xatoga yo'l qo'yishi tabiiydir. Shuning uchun u nutqda rioya qilinadigan qonunga muhtoj bo'ladi, toki tilni noto'g'ri ishlatish natijasida yuzaga keladigan xatodan saqlansin. Bu vazifani,

odatda, nahv (grammatika) yoki tilshunoslik ilmi bajaradi. Xuddi shuningdek, inson fikrlashda xatoga yo'l qo'ymasligi uchun ham muayyan qonunga muhtojdir. Inson tafakkur qiluvchi mavjudot sifatida tayanadigan ana shu qonun – "Mantiq ilmi"dir.

Musulmon mantiqshunoslari ushbu ilmga "Insonni noto'g'ri fikrlashdan saqlovchi vosita" [5:23], deya ta'rif berganlar. Demak, mantiqqa – yoki mantiqiy qonunga – rioya qilish insonning tafakkurda xatoga yo'l qo'yishining oldini oladi. "Mantiqqa rioya qilish" so'zi mantiq qoidalarini o'zlashtirib, ularni chuqur anglagan kishi xato fikrlardan butunlay saqlanadi, degani emas. Balki uning ma'nosi shuki: kim bu qoidalarga amal qilsa, amalda qo'llasa va fikrlash jarayonida ularga e'tibor bersa, xatodan ishonchli tarzda saqlanishi mumkin.

ASOSIY QISM

Mantiq ilmining boshlanish tarixi sofistlar¹ davriga borib taqaladi. Ular notiqlik mahorati va so'z o'yiniga tayanar, odamlarni ko'rinishidan kuchli va mantiqli tuyuladigan, aslida esa juda zaif bo'lgan gaplar bilan ishonitirar edilar. Ularga mashhur yunon faylasufi Suqrot (mil.av 470-399 yy.) qarshi chiqqan va ularning odamlarni adashtirish uchun ishlatgan safsatalarini o'zlari ilgari surgan dalillar va ta'riflarni tahlil qilish orqali fosh eta olgan. Shu bois aytish mumkinki, mantiq ilmining ilk bosqichlari ana shu faylasuf tomonidan sofistlar bilan olib borgan munozaralari jarayonida yuzaga kelgan.

Ammo mantiq ilmining mukammallashuvi, tartibga solinishi va tizimlashtirilishi yunon faylasufi Arastu (mil.av 384-322 yy.) tomonidan amalga oshirilgan. Shuning uchun tarixchilar Arastuni mantiq ilmining haqiqiy asoschisi deb hisoblaydilar. Hatto bu ilm unga nisbat berilib, "Arastu mantiq'i" deb ham ataladi.

Keyinchalik Arastuning shogirdlari kelib, ustozlarining mantiqqa oid asarlarini jamladilar va unga "Organon" (ya'ni asbob, vosita) nomini berdilar. Shu vaqtdan boshlab "Arastu mantiq'i" inson tafakkurida yuksak o'rin egalladi, balki u g'oya, ilm va bilimlarni o'lgaydigan yagona metod bo'lib qoldi. U o'rta asrlar davomida shu holatda qoldi va faqat yangi davr boshlanishi bilangina bu mavqeidan tushdi.

¹ Sofistlar – nutq san'ati, bahs-munozara va mantiqiy dalillarni o'rgatgan faylasuflar.

Mantiq ilmi musulmon mutafakkirlari orasida qaysi davrda tarqalganligi haqida rivoyatlar turlicha: ba'zilar yunon mantiq'i umaviylar davrida arab tiliga tarjima qilinganini aytadi, boshqalar esa bu ish abbosiylar davrida, xalifa Abu Ja'far Mansur (vaf. 158/775 y.) zamonida bo'lganini zikr qiladi. Shuningdek, Abdulloh ibn Muqaffa' (vaf. 142/160 y.) uni arab tiliga tarjima qilgan shaxs ekani ham aytiladi. Bu davrni aniq belgilash qiyin bo'lsa-da, biroq shuni aytish mumkinki, musulmonlar mantiq ilmini yunon ilmiy merosidan o'rgangan ilmlari tarkibida, arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan tarjimonlar maktabi orqali bilganlar.

Shu tarzda mantiq ilmi islomiy tafakkur markaziga chuqur singib ketdi. Abu Nasr Forobiy (vaf. 339/950 y.), Abu Ali ibn Sino (vaf. 428/1037 y.), Abu Homid G'azzoliy (vaf. 505/1111 y.), Ibn Rushd (vaf. 595/1198 y.) kabi islom faylasuflari undan ta'sirlandilar. Biroq, aytish mumkinki, mantiq ilmi borasida ulamolarning qarashlari turlicha bo'lgan bo'lsada, ko'plab olimlar uni foydali deb bilgan. Jumladan:

- 1) Imom G'azzoliy – mantiqni ilmning mezoni deb atagan;
- 2) Faxriddin Roziy – tafsir va aqidada mantiqdan keng foydalangan;
- 3) Ibn Rushd – mantiqni falsafa bilan uyg'unlashtirgan.

Shuningdek, mutakallim va usulchi olimlar ham undan keng foydalanishdi. Ularning fikricha, mantiq ilmi bu noto'g'ri fikrlashdan himoya qiluvchi vosita.

Ba'zi ulamolar esa mantiqni ortiqcha falsafiylikka olib borishi, noto'g'ri qo'llansa, shubhalarga sabab bo'lishi mumkin deb hisoblaganlar. Biroq, eng maqbul qarash bu – mantiq ilmi Islom ilmlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida qabul qilinmog'idir. Ya'ni u Islom ilmlariga xizmat qilmog'i, mustaqil maqsadga aylanib ketmasligi lozim.

Islom ilmlari inson tafakkurining eng murakkab va chuqur sohalaridan biri hisoblanadi. Qur'on va sunnatni anglash, ulardan hukm chiqarish, aqidaviy masalalarni asoslash – bularning barchasi puxta fikrlashni talab qiladi. Shu bois Islom ilmlarini o'rganishda mantiq ilmi muhim o'rin egallaydi. Masalan, mantiq ilmiga doir qonunlarni olsak: 1) Ayniyat qonuni (Narsa o'z-o'ziga teng); 2) Zidlik qonuni (Qarama-qarshi hukmlar bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'la olmaydi); 3) Uchinchi istisno qonuni

(Ikki qarama-qarshi hukmdan biri albatta to'g'ri); 4) Yetarli asos qonuni (Har bir fikr dalilga ega bo'lishi kerak). Ushbu qonunlar Islom ilmlarida ham dalillash jarayonining asosini tashkil etadi.

Tafsir ilmi inson qudrati yetguncha Qur'oni karimdagi Allohning murodini o'rganadigan ilm bo'lib, uning oyatlarini to'g'ri anglash uchun chuqur tafakkur talab qilinadi. Chunki undagi ba'zi oyatlar mujmal (umumiy), ba'zilar esa mutashobih (izoh talab qiladigan) ko'rinishda keladi, ularni noto'g'ri tushunish xatolarga olib kelishi mumkin. Mantiq ilmi esa mufasssrga om va xos ma'nolarni ajratish, sabab va musabbab aloqalarini tushunish, lafziy va ma'noviy tafsirni farqlash imkonini beradi. Shuningdek, u matnni tizimli tahlil qilish, ichki qarama-qarshiliklarni aniqlash, dalillarni uyg'unlashtirish imkonini ham beradi.

Hadis ilmida mantiq hadislar o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlash, zohiriy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, sahih va zaif dalillarni farqlashga yordam beradi.

Fiqh amaliy hukmlar ilmi bo'lib, u dalillarga asoslanadi. Ushbu dalillarni tahlil qilishda mantiqiy metodlar muhim hisoblanadi. Masalan, ikki yoki undan ortiq hukmni bir-biriga qiyoslash orqali yangi hukm chiqarish mumkin. Bu analogik xulosa fiqh ilmining asosiy metodlaridan biridir. Shuningdek, faqih ba'zi o'rinda yaxshiroq variantni tanlash (istehson) va umumiy manfaatni hisobga olmog'i (istislo) zarur bo'ladi. Ushbu o'rinlarda unga mantiq ilmi masalani ijobiy hal qilishga yordam beradi.

Aqidaviy masalalarda noto'g'ri g'oyalarni rad etish va to'g'ri e'tiqodni asoslash zarur bo'ladi. Bunda mantiq ilmi dalillarni tartibli bayon qilish, shubhalarga javob berish, qarama-qarshi fikrlarni inkor etish imkonini beradi. Shu sababli ko'plab ulamolar mantiqni aqida ilmining yordamchi vositasi sifatida ko'rganlar. Bu borada doktor, shayx Ro'id Mulla Hanafiy shunday deydi: "Biz kalom ilmi bilan shug'ullangan ba'zi olimlarni ko'rdik. Ularning yonida tafakkurlarini xatodan asraydigan vosita (ya'ni mantiq) yo'q edi. Natijada yanglishdilar va o'zlariga berilgan rad javoblarda ziddiyat hamda og'ishlarga yo'l qo'yidilar" [10:20].

Ahli sunna val jamoaga qarama-qarshi fikrdagi mu'taziliylik, rofiziylilik va dahriylik kabi oqimlarning shubhalariga javob berishda ular tushunadigan aqliy dalillar va mantiqiy qoidalardan foydalanish lozim bo'ladi. Ahli sunna

imomi Abul Hasan Ash'ariy mu'taziliylarning botil tushunchalarini inkor qilishda ularning o'z aqidalarini bayon etishda yuradigan qoidalar asosidagina ish tutgani bunga dalil bo'ladi. Xuddi shuningdek, zamonaviy mu'taziliylar – ya'ni "ilmiy yondashuv" da'vosidagi yo'nalishlar bilan bahsga kirishishda ham shunday yo'l tutiladi.

XULOSA

Bundan xulosa qilish mumkinki, mantiq ilmi Islom ilmlari bilan uyg'unlashganda yanada kuchli ilmiy tizim shakllanadi, dalillash darajasi oshadi. Qolaversa, bugungi kundagi zamonaviy fiqhiy masalalar, bioetika, moliyaviy tizim sohalarida mantiqiy yondashuv juda ham zarurdir.

Mantiq ilmi Islom ilmlarini chuqur o'rganishning ajralmas vositasi bo'lib, u orqali tafakkur tartibga solinadi, dalillar mustahkamlanadi, xatolar kamaytiriladi. Shu bois, mantiq ilmini o'rganish bu Islom ilmlarini mukammal egallashning zarur shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Kitob fi-l-mantiq. – Qohira: Al-Hay'atul misriyyatu-l-omma li-l-kitob, 1976. – 68 b.
2. Ahmad Toyiyb. Madxal li dirosati-l-mantiqi-l-qodim. – Qohira: Majlis hukamoi-l-muslimiyn, 2024. – 217 b.
3. Ali Koshif G'ito. Naqdu-l-oroi-l-mantiqiya va hallu mushkiloti. – J.2. – Bayrut: Muassasatu-n-Nu'mon, 1991. – 286 b.
4. Faxriddin Roziy. Al-Mahsul fi ilmi usuli-l-fiqh. – J.1. – Bayrut: Muassasatu-r-risola. – 421 b.
5. Ibn Sino. Al-Ishorot va-t-tanbihot. – Qohira: Dorul ma'orif. – 524 b.
6. Ibn Sino. Ash-Shifo. – Qohira: Al-Matbaatul amiriya, 1952. – 714 b.
7. Imom G'azzoliy. Mi'yoru-l-ilm. – Bayrut: Al-Matbaatul asriya, 2012. – 191 b.
8. Muhammad Rizo al-Muzaffar. Al-Mantiq. – Dorut-taoruf, 2006. – 460 b.
9. Qutbiddin Roziy. Tahriru-l-qavoidi-l-mantiqiya. – Qom: Manshuroti Baydar, 2005. – 481 b.
10. Roid ibn Abdulloh Mulla. Fathu-l-mulhim fi sharhi nazmi-s-sullam.
11. Sa'duddin Taftazoniy. Tahzibul mantiq. – Misr: Matbaatu-s-saoda, 1912. – 128 b.